



## THE PHENOMENON OF POLYSEMY IN THE DARIAN LANGUAGE

***Khilolakhan Uktamova***

*PhD, Senior Lecturer*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

***Khushnoza Ravshanova***

*Student*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** homonyms, semantic volume, metaphorical and metonymic migrations, colloquial and artistic styles.

**Received:** 28.05.23

**Accepted:** 30.05.23

**Published:** 01.06.23

**Abstract:** The article highlights the phenomenon of polysemy in Dari and Persian, and also shows the use of the same word in different meanings.

## DARIY TILIDA POLISEMIYA HODISASI

***Xilolaxon Uktamova***

*PhD, Katta o'qituvchi*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

***Xushnoza Ravshanova***

*Talaba*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

### МАҚОЛА HAQIDA

**Kalit so'zlar:** omonim so'zlar, sematik hajm, metafora va metonimik ko'chishlar, so'zlashuv va badiiy uslublar.

**Annotatsiya:** Maqolada dariy va fors tillarida polisemiya hodisasi yoritilgan, bir so'zning turli xil ma'nolarda qo'llanilishi ko'rsatilgan.

## ЯВЛЕНИЕ ПОЛИСЕМИИ В ДАРИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

***Хилолахан Уктомова***

*PhD, Старший Преподаватель*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

*Хушина Равшанова*

*Студент*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** омонимы, **Аннотация:** В статье освещается семантический объем, метафорические и явление полисемии в дари и персидском метонимические миграции, разговорный и художественный стили.

## KIRISH

Dariy tili Afg'oniston Islom Respublikasining rasmiy tillaridan biri hi-soblanadi. Dariy tilshunosligi XX asrning 60-yillarigacha fors tilshunosligi tarkibida rivojlandi. 1969-yildan boshlab dariy tili bo'yicha bir qator ilmiy nashrlar dariy tilshunosligi alohida mustaqil yo'nalish ekanligini ko'rsatdi. Maqolada yoritila-digan polisemiya hodisasi fors tilida o'rganilgan, ammo dariy tilida o'z yechimini kutayotgan masalalardan biridir.

## ASOSIY QISM

**Polisemiya** – yozilishi va gaplarda qo'llanilishi bir xil, ammo tub ma'no saqlanib qolgan so'zlardir.

Fors tilida polisemiya hodisasini o'rganish bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar olib borilgan. Masalan: L.S. Peysikovning "Лексикология современного персидского языка" nomli kitobida polisemiya haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan. A. Qu-ronbekovning "Fors tili leksikologiyasi" nomli kitobida esa, asosan, polisemiya hodisasining she'riyatda qo'llanilishi haqida ma'lumotlar berilgan. Bundan tash-qari, polisemiya yuzasidan bir qancha maqolalar ham yozilgan bo'lib, M.A. G'a-niyev va F.Sherzodalaryning maqolalari shular jumlasidandir.

A. Quronbekovning qayd etishicha, Hofiz g'azaliyotida پار so'zi 'go'zallik timsoli', 'hamdam' 'ma'shuqa', 'lazzat manbai', 'ilhom parisi', 'yaqin do'st', 'oshiq', 'hamsuhbat', va shuningdek 'tanish kishi', 'farzand', 'dil', 'solih', 'ustoz', 'alloma', 'farzand' va 'haq taolo' ma'nolarida qo'llangan<sup>1</sup>.

Dariy tilida polisemiya hodisasini she'riyatda va so'zlashuv uslublarida uchratish mumkin.

Dariy tilida آب suv' so'zi 'آب دریا' kabi o'z ma'nosida kelsa 'daryo suvi' deb, آب چشم kabi ko'chma ma'noda ishlatsa 'ko'z yoshi' tarzida tarjima qilinadi.

"آب" suv; namlik; suyuqlik; sharbat.

سر so'zi ham dariy tilida ko'chma ma'noda keng qo'llanadi: سر سرک 'ko'cha boshi', سر سر 'ko'cha boshi', سر دکتر 'bosh shifokor'.  
پنسال qalamning uchi', سر زنده باشد کلاه بسیار است - سر 'Bosh' omon bo'lsa, do'ppi topiladi'(o'z ma'nosida)

**س گو س ف ن د** – ‘Yuz bosh qo‘y’ (sanoq son ma’nosida)

**م ي خواه ي ا ز س ر ش رو ع ك ن ي ؟** – ‘Boshidan boshlashni xohlaysanmi?’ (boshlanish)

**س ر مو ي م را ب ر د م** – ‘Sochimning uchini qirqdim’ (biron-bir narsaning uchi)

**د ي روز م ن س ر ط ب ي ب را د ر ش قا خانه د ي د م** – ‘Bosh tabib’(boshliq)

**س ر ا ز ا م روز روزه داش ت م** – Bugundan boshlab’(Predlog)

**د ي روز م ن س ر م ي ز ي را ش س ت م** – ‘Kecha men dasturxonni yuvdim’ (qoplamoq, yopmoq; dasturxon)

**ما د ر س ر نان ج م ع ش د م** – ‘Biz ovqat ustida yig‘ildik’ (Ovqat ustida)

**دو س ا ع ت د ر س ر ي اي ا س تاد ن مش ك ل ب و د** – ‘Ikki soat oyoqda turish qiyin edi’ (Oyoqda turish)

**چ ن د ا ف غان ي س ر م ي د ه ي ؟** – ‘Qancha afg‘oniy berasan? (Miqdor)

**ب د ا ز ن ي م س ا ع ت ف ل م س ر ش د** – ‘Yarim soatdan keyin kino boshlandi’(boshlanmoq)

**او كار ش را و ق ت س ر ك رد** – ‘U ishini vaqtli boshladı’(boshlamoq)

Shuningdek, bir so‘z dariy tilida ko‘plab polisematik ko‘rinishlarda ishlataladi. Masalan, دست چپ – دست من 1) qo‘l- (mening qo‘lim); 2) tomon (chap tomon) so‘zining ma’nolari: دست خوردن – yemoq’ fe’li ham har xil ma’nolarda qo‘llaniladi:

1) غذا را خوردن – ovqatni yemoq’;

2) آب را خوردن – suvni ichmoq’;

3) گوله خوردن – o‘q yemoq’<sup>2</sup>.

A. Quronbekovning ta’kidlashicha, پرده عراق – deraza pardasi; Iroq ohangi orasida juda katta farq bor. Bularni bir so‘zning bir-biridan uzoq ma’no belgilari, deb bo‘lmaydi. Ko‘p hollarda polisematik va omonim so‘zlar adash-tiriladi.

Bir-biridan uzoq ma’no belgilari – omonimlardir. Lekin lug‘atlarda so‘zning bu ma’nosni omonim sifatida qaralmaydi. Ko‘p ma’noli so‘zlardagi ma’no yaqinligi bilan omonimlar o‘rtasidagi farqlarni ajratishning aniq ko‘rsatkichlari ishlab\_chiqil-magan. Bu mavzu dariy tili leksikologiyasida o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biridir<sup>2</sup>.

O‘nlab so‘zlar metafora va metonomik ko‘chishlar natijasida o‘zining sematik hajmini shakllantirgan. Dariy tilidagi “دل” tushunchasi hayot, his-tuyg‘ular, fikrlar, intilishlar, jasorat va

boshqalarni ifodalash bilan bog‘liq. Bundan tashqari “دل” so‘zi yana “ruh” ma’nosida ham kelishi mumkin. Bunday sinonimik misollar ko‘mdir, masalan:

“چشم” ko‘z; teshik; lahza; on; umid; daraxt ko‘zi; ko‘rish.

“پاқ” toza; tozalangan; barra; dog‘ tushmagan; chin, to‘g‘ri so‘z; aqli butun.

“پختн” pishirilgan; qaynatilgan; tayyor; pishgan; yetilgan; malakali; o‘ylab topilgan.

“کشیدن” tortmoq; tortish; chizish; jalb qilish; sug‘irib chiqarish; chidamoq.

پدرم سگرت کشید — ‘Otam sigaret chakdi’ (chekmoq)

من به کاغذ خطا کشیدم — ‘Men daftaramga chizdim’ (chizmoq)

من اورا از خانہ کشیدم — ‘Men uni uydan haydadim’ (haydamoq)

من دوستمرا سه ساعت انتظار کشیدم — ‘Men do‘stimni uch soat kutdim’ (kutmoq)

خواهرم بالا پوششرا کشید — ‘Opam paltosini yechdi’ (yechmoq)<sup>3</sup>

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, dariy tilida polisematik so‘zlarni ko‘p uchratish mumkin, avval ta’kidlanganidek she’riyatda va so‘zlashuvda kuzatiladi. Polisematik so‘zlar fe’l so‘z turkumida kelganda har xil ma’nolarda qo‘llaniladi. Buni ‘کشیدن’ fe’lidagi misollar orqali ham bilish mumkin. Polisemiya ot so‘z turkumida kelganda esa, o‘zining tub ma’nosi saqlanib qoladi. Ko‘p hollarda, polisematik so‘zlar omonim so‘zlar bilan adashtiriladi, ammo fors va dariy tillarida ularning aniq farqli belgilari hali o‘rganilmagan.

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. – T.: TDSHI, 2019.
2. Киселева Л.Н. Дари-русский словарь. – М., 1978.
3. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М., 1975.
4. Уктарова Х. Анализ именных групп слов в трудах по грамматике языка дари, созданных в XX веке. // Востоковедения 2, – С. 30-36.